



## **XALQ DEPUTATLARI MIRISHKOR TUMAN KENGASHI QARORI**

2022 - yil 29 - iyul

VI-36-100-4-63-K/22

Mirishkor tuman hokimligi

### **Mirishkor tumanining 2022 yil 2-chorak yakunlari bo'yicha soliq va tushumlar istiqbol rejasini oshirib bajarilgan qismi hisobidan kelib tushgan mablag'larni tegishli sohalarga yo'naltirish to'g'risida.**

Mirishkor tumanining 2022 yil 2-chorak yakunlari bo'yicha soliq va tushumlar istiqbol rejasini oshirib bajarilgan qismi hisobidan kelib tushgan mablag'larni tegishli sohalarga yo'naltirish to'g'risidagi tuman hokimining moliya-iqtisodiyot va kambag'allikni qisqartirish masalalari bo'yicha birinchi o'rinbosari A.Sariqovning axborotini tinglab, xalq deputatlari tuman Kengashi deputatlari tomonidan bildirilgan takliflar, fikr va mulohazalardan kelib chiqib, O'zbekiston Respublikasining "2022 yil uchun O'zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to'g'risida"gi Qonunning 20-moddasiga asosan Xalq deputatlari Mirishkor tumani Kengashi

### **QAROR QILADI:**

1. Tuman hokimining moliya-iqtisodiyot va kambag'allikni qisqartirish masalalari bo'yicha birinchi o'rinbosari A.Sariqovning axborotidagi tuman budjetining 2022 yil 2-chorak daromadlar rejasining orttirib bajarilishi hisobiga 2638,0 mln.so'm qo'shimcha mablag'lar shakllanganligi ma'lumot uchun qabul qilinsin.

2. Tuman hokimining birinchi o'rinbosari (A.Sariqov) va tuman moliya bo'limi (A.Shukurov) lar bir hafta muddatda mazkur qarorga muvofiq hamda O'zbekiston Respublikasining "2022 yil uchun O'zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to'g'risida"gi Qonuni va O'zbekiston Respublikasi Budjet kodeksi talablari asosida ko'zda tutilgan tadbirlarni o'z vaqtida moliyalashtirish uchun "Tashabbusli budjet" ga jamg'armasiga 792,0 million so'm, yoshlar daftariga 396,0 million so'm, ayollar daftariga 396,0 million so'm, quyosh paneli o'rtanish xarajati uchun 145,0 million so'm, "Saxovat va ko'mak" jamg'armasiga 200,0 million so'm, majburiy ijro bo'limiga Davlat boji va pochta xarajatlari uchun 70,64 million so'm, "Stop, to'xta chegara zonasi" o'rnatish 12,0 million so'm, xorijiy tillar bo'yicha eng yaxshi maktab uchun 225,0 million so'm, Chamanzor MFY binosini ta'mirlash uchun 153,4 million so'm, qo'riqlash xarajatlariga 100,0 million so'm, referendum o'tkazish uchun 3,2 million so'm

mablag‘lar tuman hokimining qaror loyihasini kiritisin.

3. Tuman g‘aznachilik bo‘linmasi (SH.Nashirov) ajratiladigan mablag‘lar bo‘yicha shartnomalarni o‘z vaqtida ro‘yxatdan o‘tkazish va xarajatlarni belgilangan tartibda amalga oshirilishini ta‘minlasin.

4. Mazkur qaror ijrosining nazorati Xalq deputatlari tuman Kengashining mahalliy budjet, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, investitsiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi raisi hamda tuman hokimining birinchi o‘rinbosari A.Sariqov zimmasiga yuklatilsin.

5. Mazkur qaror qabul qilingan kundan e‘tiboran kuchga kiradi.

**Kengash raisi**



**Sh.Ch.Sanayev**